

BO‘LAJAK IJTIMOYIY ISH XODIMLARINING AMALIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Tursunaliyeva E'zozaxon Ilxomjon qizi,
Farg'ona davlat universiteti ijtimoiy ish kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini kasbiy-amaliy jihatdan tayyorlash masalalari, ijtimoiy ish kasb sifatida yuzaga kelishi, kompetensiya va kompetentlik, amaliy kompetensiya tushunchalarining mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining amaliy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ijtimoiy ish, ijtimoiy ish xodimi, kompetensiya, kompetentlik, amaliy kompetentlik, kodeks.

FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCIES OF FUTURE SOCIAL WORKERS AS A DOLZARB PEDAGOGICAL PROBLEM

*Tursunaliyeva Ezozakhon Ilxomjon kizi,
Teacher of the Department of Social Work of Fergana State University*

Abstract. In this article, the issues of professional and practical training of future social work workers in higher education institutions, the emergence of social work as a profession, the content and essence of the concepts of competence and competence, and practical competence are highlighted. It is also based on the fact that the formation of practical competencies of future social workers is an urgent pedagogical problem.

Keywords: higher education, social work, social worker, competence, competence, practical competence, code.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini amaliy tayyorlashning hozirgi zamondagi maqsadlari bitiruvchilarning grafik ta'limi mazmunini va tuzilmasini jiddiy o'zgartirishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlar jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini joriy etishga, bugungi kundagi tashkilotlarning ijtimoiy ish xodimlariga qo'yayotgan talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan. Ayniqsa, fan va texnikani hozirgi rivojlanishi sharoitida oliy pedagogika ta'lim muassasalarida bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning yaxlit tizimini yaratish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi. Qarorda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish vazifalarini belgilab berilgan.

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini kasbiy-amaliy jihatdan tayyorlash negizida quyidagi tamoyillar yotadi:

bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini amaliy jihatdan tayyorlashni insonparvarlashtirish; ilm-fan texnologiyalarining tezkor rivojlanishi sharoitida bo'lajak ijtimoiy ish xodimi shaxsini shakllantirishga tizimli va kompetensiyaviy yondashuv;

bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini sohaga oid bilimlar bilan bir qatorda metodologik bilimlar bilan qurollantirish;

bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlash mazmuni va metodikasini takomillashtirish.

Yuqorida qayd etilganlardan anglanadiki, bugungi kunda bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalari va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish amaliyotidan foydalanib, ularning o'z kasbiy malakalarini muntazam ravishda oshirib borish va bunda samarali innovatsion uslublarni o'zlashtirib olib, amaliyotga joriy etish zarurligi kelib chiqadi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ixtisoslik yo'nalishlarini takomillashtirish borasida samarali ishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda keyingi yillarda jamiyatda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi bilan bog'liq ravishda ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, OTMda tayyorlanayotgan kadrlarda nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita, samarali tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj shakllandi. OTMda bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini amaliy kompetentlikka ega bo'lishlari yuqorida qayd etilgan ehtiyojni qondirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida amaliy kompetentlikni shakllantirish jarayoni OTM ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois mazkur ta'lim muassasalarida ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda amaliy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladigan zarur pedagog shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy amaliy tayyorgarligi darajasini bo'yicha bilim, pedagogik qobiliyat jarayonlari, topqirlik, xatti-harakat motivatsiyasi va baholash muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Pedagogika ensiklopediyasida "Kompetentlik" tushunchasi pedagogika uchun alohida ahamiyatga ega. Jahonda ta'lim tizimini modernizatsiyalash, zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti bilan uyg'unlashtirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriyetish, zamonaviy talablar asosidayangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashga zarurat borligi qayd etilmoqda.

Ta'limni jamiyat madaniyatini o'zlashtirish asosida ta'lim oluvchilar faoliyatini turli sohalarda, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirishning maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida qarash mumkin. Ta'lim maqsadini bunday tushunish esa, o'z navbatida kompetentli yondashuvni ro'yobga chiqarish uchun asos yaratadi. Shu kontekstda psixologik-pedagogik nazariya va amaliyotda "kompetensiya" va "kompetentlilik" atamasini tushunishga turli yondashuvlar amalga oshiriladi. Xorijiy so'zlar lug'atida "kompetentli" tushunchasi qandaydir muassasa vakolati doirasida, shaxs yoki o'z yechimini talab qiluvchi masalalar, shaxslar doirasida kompetensiyalarga ega bo'lish sifatida ochib berilgan. Competent (frans.) kompetentli, qonuniy huquqqa ega bo'lgan, competentia (lot.) tegishli, layoqatli, competere (italyan) talab qilish, mos kelish, yaroqli bo'lish, competent (ingl.) qobiliyat (kompetensiya). Ko'rinib turibdiki, kompetentlilik va kompetensiya bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar hisoblanadi[2].

Xorijiy tadqiqotchilar "kompetensiya" tushunchasini qobiliyatlar, bilim va malakalar majmui sifatida emas, balki aniq vaziyatga adekvat bo'lgan, ya'ni harakat borishining

shartlari va maqsad bilan muvofiqlikda topshiriqni yuqori darajada bajarish uchun zaruriy barcha (bilim va malakalar, qobiliyat va psixik sifatlar tizimiga uyushtirilgan) manbalarni safarbar qilishga qodirlik yoki tayyorlik sifatida sharhlaydilar (C.I.Beelisle, M.Linard, B.Rey, G.Le.Booterrf, L.Turkal, N.Guignon, M.Joras va boshqalar)[2].

Adabiyotlarda ijtimoiy ish kasb sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshida yuzaga kelgani qayd etiladi. Ayni shu davrda ayrim iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ish bilan kasb sifatida shug‘ullanuvchi mutaxassislar guruhlarini paydo bo‘ladi, o‘quv yurtlari ochiladi, ijtimoiy xodimlar tayyorlana boshlaydi. Buyuk Britaniya va AQShda ijtimoiy ish birinchi bo‘lib, faoliyatning alohida turi sifatida shakllangan va keyinchalik professional zaminga qo‘yilgan mamlakatlar hisoblanadi.

Profesional ijtimoiy xodimlarni tayyorlash va ijtimoiy ishni ilmiy va o‘quv fani sifatida rivojlantirishga quyidagi omillar turtki bergan:

1. Umumiy prinsiplar va mavjudlik meyorlari bilan bog‘langan yagona hamjamiyatning parchalanishi;

2. Urbanizatsiya va industrializatsiya;

3. Insonning ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining ko‘payishi.

Ijtimoiy ishning professional faoliyat sifatida shakllanish jarayoni AQShda ayniqsa faol kechgan. Shaharchalar shaharlarga aylanishi va kelgindilar, daydilar sonining ko‘payishi xudoyixonalar va turmalar soni sezilarli darajada ko‘payishiga olib kelgan. Bu muassasalarda saqlash sharoitlari juda yomon bo‘lgan. Kambag‘allar, aqli zaiflar va mahkumlarga homiylik qilish masalasi keskin tus olgan. Aholining bu toifalari shtatlarning, keyinchalik esa Xayriya va shtatlarni obodonlashtirish kengashlarining homiyligi ostiga olingan. Ijtimoiy sektorda ko‘ngillilar tashkilotlari va bolalarga qarash agentliklari paydo bo‘lgan.

Shtatlarning xayriya kengashlari XIX asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan. Ular turli xil tuzilish va vazifalarga ega bo‘lgan, lekin ularning asosiy vazifasi qonunchilarga turli muassasalarni boshqarish sohasida maslahat yordami ko‘rsatish hisoblangan. Kengashga taniqli ko‘ngillilar, o‘sha davrning o‘qimishli kishilari kirgan va ularning faoliyatiga haq to‘lanmagan. 1865-yilda turli shtatlardagi Kengashlarning a‘zolari Amerika Ijtimoiy fanlar uyushmasiga birlashganlar.

XIX asrning 80-yillarida AQShda ikki kasbiy tashkilot paydo bo‘ladi va ular ijtimoiy ishning ikki yo‘nalishiga asos soladi. Ulardan biri – London uyushgan xayriya jamiyati andozasiga muvofiq tashkil etilgan xayriya tashkiloti 1887-yil Baffaloda paydo bo‘ladi. Ikkinchisi – Qo‘shnilar gildiyasi 1886-yil Nyu-Yorkda tashkil etiladi. Ikkala tashkilot ham o‘z qarashlarini konservativ Angliya an‘analaridan o‘zlashtiradi va jadal sur‘atlarda rivojlanadi. 1892 yilga kelib AQSH va Kanadaning yirik shaharlarida 92 ta xayriya tashkiloti tashkil etiladi.

Ushbu tashkilotlar yoki harakatlar qashshoqlar va sho‘rpehona odamlarning manfaatlarida ish olib boradilar. Ular o‘z saflariga aholining oliy va o‘rta qatlamlaridan o‘qimishli kishilarni jalb qiladilar. Yosh ayollar ijtimoiy ishda o‘z ijtimoiy maqomini yuksaltirish va iqtisodiy mustaqillikni qo‘lga kiritish imkoniyatini ko‘radilar. Ushbu tashkilotlar qashshoqlik sabablarini bartaraf etish yo‘llarini topishga harakat qiladilar. Ular mazkur ijtimoiy illatni ilmiy usullar yordamida bartaraf etish mumkin deb hisoblaydilar. Ular aholi kam ta‘minlangan qatlamlarining insoniy hayot kechirish, dam olish va qariliqda ijtimoiy ta‘minot olib turish huquqlarini tan oladilar. Bular “ilmiy xayriya” yoki “ilmiy filantropiya g‘oyalari” degan nom oladi.

Ijtimoiy ish Yevropada ham jadal sur‘atlarda rivojlanadi. Londondagi Uyushgan xayriya jamiyati 1903-yilda ijtimoiy xodimlar tayyorlash uchun birinchi maxsus o‘quv yurti ochadi va u “Sotsiologiya maktabi” degan nom oladi. 1912-yilda bu maktab London

iqtimod maktabining ijtimoiy ish fakultetiga aylantiriladi.

1908-yilda Yevropada xotin-qizlar harakati asoschisi Alisa Solomon rahbarligida Germaniyada ijtimoiy xodimlar uchun ayollar maktabi ochiladi. 1910-yilga kelib Yevropaning rivojlangan mamlakatlari va AQShda 14 ijtimoiy ish maktabi faoliyat ko'rsatadi. Ilk ijtimoiy xodimlar maktablarida tinglovchilar, odatda, bir yillik tayyorgarlikdan o'tadilar.

Ammo ijtimoiy xodimlar uchun birinchi haqiqiy o'quv yurti – ijtimoiy xodimlarni tayyorlash instituti 1899 yilda Gollandiyaning Amsterdam shahrida ochiladi. Bu yerda ijtimoiy ish mutaxassislarini tayyorlash kunduzgi kurslarda ikki yil mobaynida amalga oshiriladi.

1920-yillarda Belgiya, Norvegiya, Shvetsiya, Italiyada birinchi ijtimoiy ish maktablari ochiladi. Ijtimoiy xodimlarni tayyorlovchi maktab hatto Chilida ham tashkil etiladi – uning asoschisi taniqli jamoat arbobi Rene Sandra hisoblanadi.

O'tgan asrning 30-yillarida ijtimoiy xodimlarni tayyorlashga kirishgan mamlakatlar soni ko'payib boradi: Ispaniya, Isroil, Irlandiya, Lyuksemburg, Gretsiya, Portugaliya, Daniya, Hindiston, Misr.

Ijtimoiy ish maktablarida bazaviy ta'lim va uning amaliyot bilan aloqasi, kasb-hunar ta'limining zaruriy darajasi, umumiy tayyorgarlik va alohida ixtisoslashuv masalalari muhokama qilinadi.

70-yillardan boshlab ijtimoiy ishga doir adabiyotlarda quyidagi metodlar umum e'tirof etiladi:

1. Individual ish metodi;
2. Guruhli ish metodi;
3. Jamoatchilik ishi;
4. Ijtimoiy boshqarish va rejalashtirish.

Keyingi davrda turli mamlakatlarning tadqiqotchilari mazkur ish metodlarini birlashtirishga, ularni yagona nazariy asosga keltirishga harakat qiladilar. Ijtimoiy xodimdan tor ixtisoslashuv emas, balki universalizm, turli ish metodlari va sohasini birlashtirish ko'nikmasi talab etiladi. Zero, aynan kompleks yondashuv ijtimoiy xodimlarga jamiyat a'zolarining ko'pgina muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy ishda yagona nazariya mavjud emas. Uning nazariy bilimi rang-barang ijtimoiy ilmiy maktablar tomonidan ifodalangan bo'lib, ularning doirasida asosiy tadqiqot an'analari rivojlanadi va amaliy ijtimoiy ishga turli xil ilmiy va ilmiy-amaliy paradigmalarda taklif qilinadi.

Ijtimoiy ish amaliyotida tizimli modellarning boshqa variantlaridan ham foydalaniladi. Shulardan biri - tizimli-ekologik model. U hozirgi vaqtda keng tarqalgan bo'lib, mashhur "hayot modeli" konsepsiyasining asosiga aylangan. Ushbu modelga muvofiq odamlar o'zlarini qurshagan muhitga bir-birini o'zgartirish yo'li bilan tinimsiz moslashadilar: individlar muhitni o'zgartiradilar va o'z navbatida, uning ta'sirida o'zgaradilar. Ta'sir ko'rsatishning turli xil metodlarini o'zlashtirish qo'yilgan vazifalarni samarali yechishni ta'minlaydi. Ammo buning uchun alohida mahorat, sintez qilish qobiliyati ham talab etiladiki, ular faqat ish tajribasiga muvofiq shakllanishi mumkin.

Jahonda bir necha yuz ijtimoiy ish oliy maktablari va universitetlarning ijtimoiy xodimlar tayyorlovchi fakultetlari bor. Birgina Yevropada ijtimoiy ish sohasida ma'lumot beruvchi 500 dan ortiq o'quv muassasalari faoliyat olib boradi. Ko'pgina mamlakatlarda ushbu ta'lim davlat tomonidan moliyalashtiriladi, lekin ayrim mamlakatlarda xususiy o'quv yurtlari ham bor (masalan, Italiya, Fransiyada). Ba'zi bir mamlakatlarda maktablarning xususiyligi ularning muayyan diniy konfessiyaga mansubligi bilan belgilanadi. Masalan, Portugaliya, Ispaniyada va Lotin Amerikasi mamlakatlarida Rim katolik cherkoviga qarashli maktablar soni dunyoviy muassasalar sonidan ancha ko'p.

Ko'pgina maktablar ijtimoiy ish, ayniqsa jadal sur'atlarda rivojlangan 60-yillarda ochiladi. Bu davrda ijtimoiy xodimlarni ko'plab milliy va halqaro uyushmalari tashkil etiladi, maxsus jurnallar, adabiyotlar nashr qilinadi, ijtimoiy xodimning halqaro axloqiy kodeksi ishlab chiqiladi. Ko'pgina olimlar fikriga ko'ra, ijtimoiy ish mustaqil kasb va akademik fan sifatida aynan o'tgan asrning 60-70-yillarida shakllangan.

Ijtimoiy xodimlar ta'limida milliy ta'lim tizimlarining xususiyati aks etadi. Masalan, Yaponiyada dasturlarning keng majmui taklif qilinadi: mahalliy kollejda ikki yil tahsil olish, kollej yoki universitetda to'rt yil shug'ullanish (ayniqsa keng tarqalgan variant) va universitetda ikki yillik aspirantura (uni bitirganlarga magistr unvoni beriladi). Ikki universitetda doktorantura taklif qilinadi. Ijtimoiy ish maktablari bu yerda oliy ta'lim doirasida mavjud bo'lsa-da, ularni universitetlar bilan tenglashtirish yaramaydi. 3-4 yillik ta'lim maxsus texnik, ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik sifatida qaraladi. Universitetlarda keng gumanitar ta'lim taklif qilinadi. Maktab bitiruvchisi ijtimoiy xodim diplomi yoki unvonini oladi.

Birlashgan Qirollikda ham ta'limning yagona andozasi mavjud emas. Ijtimoiy ish mutaxassislarini tayyorlash universitetlar, politexnikumlar va kollejlarda amalga oshiriladi. Dasturlar har xil: bakalavr unvonini olish uchun to'rt yillik ta'lim; aspiranturada bir yillik ta'lim; boshqa fakultetlarni bitirganlar uchun ikki yillik ta'lim; universitet kursini to'liq bitirmagan talabalar uchun ikki yoki uch yillik ta'lim. Tabiiyki, bitiruvchilar malaka darajalari, diplomlar va sertifikatlar oladilar.

AQShda professional attestatsiya uch darajada amalga oshiriladi. Bakalavr unvoni – birinchi professional daraja. U 4 yillik ta'limni tugatganlarga beriladi. Magistr unvoni maxsus ijtimoiy ish maktabida ikki yil tahsil olgandan so'ng beriladi. Doktorlik unvonini olish uchun magistraturadan so'ng yana ikki yillik tayyorgarlikdan o'tish talab etiladi. Bundan tashqari, turli ixtisosliklar bo'yicha "chuqurlashtirilgan" kurslar va magistrlar uchun ta'limni davom ettirish dasturlari ham mavjud. Kursni muvaffaqiyat bilan tamomlagan talabalarga shahodatnoma beriladi. Bundan tashqari, mahalliy kollejlarda ijtimoiy ish sohasida texnik (yordamchi) xodimlar tayyorlash ikki yillik dasturlari amal qiladi.

AQShda kasb-hunar ta'limi tizimi besh o'quv dasturini nazarda tutadi: inson xulq-atvori va ijtimoiy muhit; ijtimoiy ta'minot siyosati va ijtimoiy yordam xizmatlari; ijtimoiy ish amaliyoti; ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliy faoliyat.

Turli mamlakatlarning ijtimoiy xodimlarini tayyorlash ishida o'tgan asrning 20-yillarida tashkil etilgan Ijtimoiy ish maktablari xalqaro uyushmasi (IASSW) muhim rol o'ynaydi. Uning funksiyalaridan biri ijtimoiy ish milliy ta'lim dasturlariga baho berish hisoblanadi. Uning qoshida tashkil etilgan Ijtimoiy ish maktablari halqaro qo'mitasi (ICSSW) BMT va Halqaro mehnat tashkiloti bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

Xorijiy tajribaga bag'ishlangan adabiyotlarda amaliy ijtimoiy ish umumiy va ixtisoslashgan faoliyatga ajratiladi.

Umumiy ijtimoiy ish uch sohani nazarda tutadi:

1. Individning ijtimoiy moslashuvi va uni reabilitatsiya qilish maqsadida individual-shaxsiy va oilaviy darajadagi ijtimoiy terapiya;
2. Yosh, jins, qiziqishlar yoki o'xshash muammolar belgilariga ko'ra tasniflanishi mumkin bo'lgan guruhlar bilan ijtimoiy ish olib borish;
3. Yashash joyi bo'yicha ijtimoiy ish olib borish.

Barcha mamlakatlarda ixtisoslashgan ijtimoiy ish ham rivojlangan bo'lib, u bilan aholini ish bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, tibbiyot-reabilitatsiya xizmatlarida, ta'lim muassasalarida, qariyalar uylarida, penitensiar muassasalarda, qurolli kuchlarda shug'ullanadilar.

Ijtimoiy ishning samaradorligi ijtimoiy xodimga, uning bilimi, tajribasi va shaxsiy fazilatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Ammo mutaxassisning professional mas'uliyati kasbiy tashkilotlar – Ijtimoiy xodimlar uyushmalari tomonidan qabul qilingan qadriyatlar va axloqiy prinsiplar bilan belgilanadi. Ijtimoiy ishning qadriyatlari va axloqiy prinsiplari kasb odobi kodeksida aks ettirilgan bo'lib, u amaliy faoliyatda o'ziga xos bir dasturil amal bo'lib xizmat qiladi.

Kodeks kasb egalari tashkilotning munosib a'zosi bo'lib qolish uchun amal qilishlari lozim bo'lgan xulq-atvor qoidalarini belgilaydi. Ko'pgina kasblarning odob kodekslari universal qoidalar va prinsiplarga ega, lekin har bir konkret kasbga alohida qoidalar ham xosdir.

Ijtimoiy xodimlarning kasb odobi kodeksi nimalarni o'z ichiga oladi? Buni AQSh ijtimoiy xodimlarning kasb odobi kodeksi misolida ko'rib chiqamiz.

AQSh ijtimoiy xodimlarning kasb odobi kodeksi AQSh Ijtimoiy xodimlar milliy uyushmasi delegatlari Assambleyasida 1979-yilda qabul qilingan. Kodeksda bayon etilgan prinsiplar amr etuvchi va taqiqlovchi xususiyatlarga ega. Ular kodeksning 6 asosiy qismlarida ifodalangan bo'lib, ijtimoiy xodimlarning burchlari va javobgarligini belgilaydi.

Kodeksning birinchi qismi ijtimoiy xodim xulq-atvorining umumiy masalalari va uning kasbiy vazifalariga bag'ishlangan. Ikkinchi qismda ijtimoiy xodimlarning mijozlar oldidagi axloqiy javobgarligi masalalari muhokama qilingan. Uchinchi qism ijtimoiy xodimlarning o'z hamkasblari oldida javobgarligiga bag'ishlangan. Kodeksning to'rtinchi qismida ijtimoiy xodimlarning ish beruvchilar oldidagi axloqiy mas'uliyati muammolari muhokama etilgan. Kodeksning beshinchi qismida ijtimoiy xodimlarning o'z kasbi oldidagi axloqiy mas'uliyati masalalari ko'rib chiqilgan. Nihoyat, kodeksning oltinchi qismida ijtimoiy xodimlarning jamiyat oldidagi majburiyatlari belgilangan.

Lo'nda qilib aytganda, ijtimoiy xodimlarning kasb odobi kodeksida bayon etilgan prinsiplar ijtimoiy xodimga o'z faoliyatida nimaga intilish lozimligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda ular ijtimoiy xodim o'z vazifalarini bajarish jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan alohida qoidalarni belgilaydi. Mazkur qoidalarning buzilishi rasman shikoyat qilish uchun asos beradi. Bundan tashqari, kodeks ijtimoiy xodimlarni ular amalda duch keladigan axloqiy muammolarni yechishga yordam beruvchi axloqiy prinsiplar bilan qurollantiradi. So'nggi yillarda ijtimoiy xodimlar bu muammoga jiddiy e'tibor bermoqdalar.

Ijtimoiy xodimlar o'z faoliyatida ularning ishini og'irlashtiruvchi turli xil axloqiy muammolarga duch keladilar. Aksariyat qiyinchiliklar ikki yoki undan ortiq qarama-qarshi vazifalar va majburiyatlar o'rtasida tanlashni amalga oshirish zaruriyati bilan belgilanadi. Masalan, AQSH ijtimoiy ish xodimlarning kasb odobi kodeksida: "Ijtimoiy xodim mijozlarning fuqarolik yoki yuridik huquqlarini buzuvchi yoki kamsituvchi harakatlarda ishtirok etishi mumkin emas", deyilgan. Ammo shu kodeksning o'zida: "Ijtimoiy xodim ish beruvchi tashkilot oldida o'z majburiyatlariga rioya etishi lozim", deb ko'rsatilgan. Huquqlar berilgan muassasa siyosati mijozlarning fuqarolik huquqlari buzilishiga olib kelsa, mazkur ikki prinsip bir-biri bilan qanday to'qnashishini tasavvur qilish qiyin bo'lmasa kerak.

Quyida AQSh ijtimoiy xodimlarning kasb odobi kodeksida belgilangan prinsiplarning ayrimlariga batafsilroq to'xtalamiz.

Maxfiylik va jamiyat manfaatlari. Ijtimoiy xodimlar mijozdan olingan ma'lumotlar sir saqlanishi lozim, degan qoidaga rioya qilishlari shart. Biroq ayrim hollarda, masalan, mijoz uchinchi shaxsga ziyon yetkazishi xavfi mavjud bo'lgan holda ijtimoiy xodimlar axborotni oshkor etishga majbur bo'ladilar. Bu hol kodeksda e'tiborga olingan: "yengib bo'lmas sabablar"ga ko'ra mutaxassislar axborotni oshkor etishlari mumkin.

Haqiqatni gapirish zarurligi va mijoz manfaatlari. Ijtimoiy ishda mijozning o‘z holati va farovonligi bilan bog‘liq ishlar haqida haqqoniy axborot olish huquqi bilan bog‘liq prinsip bor. Ammo ayrim ijtimoiy xodimlar favqulodda hollarda haqiqatni yashirish va yolg‘on axborot berish mumkin va hatto zarur deb hisoblaydilar. Masalan, mijozni unga ziyon yetishidan saqlash lozim. Shunga qaramay, aksariyat ijtimoiy xodimlar mijozning haqqoniy axborot olish huquqini kamsitish mumkin emas, degan fikrda sobitlar.

Keltirilgan misollar ijtimoiy xodim holatining murakkabligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy ish kasbi rivojlanib boradi va unda yuz beruvchi o‘zgarishlar yangi axloqiy muammolar va masalalarga sabab bo‘lishi shubhasizdir. Masalan, kompyuter texnologiyasining rivojlanishi xabarlarining shaxsiy va maxfiyligiga doir masalalarni kun tartibiga qo‘yishda davom etmoqda. Tibbiyot rivojlanishi bilan yashash huquqi va o‘lish huquqi bilan bog‘liq masalalar paydo bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, yangi faoliyat sohalari yaratilmoqda va ular ham yangi axloqiy masalalar va qadriyatlarga doir muammolar tug‘ilishiga olib kelmoqda. Masalan, ixtisoslashgan xususiy amaliyot sezilarli darajada kengayishi natijasida reklama qilish odobi, noto‘g‘ri amaliyot, gonorarlar va kompetensiyaning muvofiq emasligi muammolari paydo bo‘lmoqda.

Ijtimoiy ish kelajagini aniq bashorat qilish mumkin emas, lekin shu narsa aniq va ravshanki, bu kasbda qadriyatlarga doir va axloqiy muammolar bundan buyon ham muhim rol o‘ynashda davom etadi.

Olib borilgan tahlillardan aniqlandiki, bo‘ljak ijtimoiy ish xodimlarida kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda quyidagilarga asoslaniladi: ijtimoiy ish ta‘limini amalga oshirishning mazmuni va vazifalari; hal etiladigan muammolar va yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan qiyinchiliklar xususida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish; shaxsiy faollikka erisha olish; ijtimoiy ish, pedagogik va psixologik bilimlarning an‘anaviy tizimga emas, balki ijtimoiy ish ta‘limining o‘ziga xosligi bilan belgilanadigan tuzilmasi va mazmuniga yo‘naltirilganlik; talabaning fanlarga qiziqishi va ongli fikrlashi, bilim, ko‘nikma, mahoratlari, bilimlarini doimiy ravishda boyitishga intilishi; tarbiyalangan darajasi (axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat); ijtimoiylashuvi (kasbiy va ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi); madaniyatligi (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni qabul qila olishi, ekologik madaniyat, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati).

Foydalanilgan adabiyotlar

Boreham, N. and M. Fischer (2009). The Mutual Shaping of Work, Vocational Competence and Work-Process Knowledge. R. Maclean and D. Wilson (Eds.), International Handbook of Education for the Changing World of Work. Dordrecht: Springer, - P. 1593-1609. Brinkman, B., Westendorp, A.M.B., Wals, A.E.J. and Mulder, M. (2007). Competencies for Rural Development Professionals in the Era of HIV/AIDS. Compare: A journal of comparative education, 37, 4,- P. 493–511.

Муслимов. Н.А., Абдуллаева Қ.М., Қўйсинов О.А., Гаипова Н.С. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. Монография. – Т. “Фан ва технология”. 2013.